

ALOHIDA EHTIYOJLI O'QUVCHILARNI INKLYUZIV MUHITDA O'QITISH TEXNOLOGIYALARI

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti "Pedagogika va
psixologiya kafedrası" mustaqil tadqiqotchisi*

Narziyeva Xabiba Xudoyberdiyevna

Annotatsiya. *Ushbu maqola boshlang'ich ta'limda alohida ehtiyojli alohida ehtiyojli o'quvchilarni inklyuziv muhitda o'qitishning zamonaviy pedagogik texnologiyalariga bag'ishlangan. Maqolada inklyuziv ta'limning asosi hisoblangan universal dizayn tamoyillari, uning ta'lim jarayoniga tatbiqi mexanizmlari, shuningdek, alohida ehtiyojli bolalar bilan ishlashda bevosita qo'llaniladigan amaliy metodlar tahlil qilingan. Xususan, individual rivojlanish rejasini amaliyotga integratsiya qilish, Differensial o'qitish yondashuvini qo'llash hamda "Skalafolding" (Yordamchi ko'priklar) texnologiyasi batafsil ko'rib chiqilgan. Shuningdek, xulq-atvorni boshqarishda Token tizimi va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishda Ijtimoiy Hikoyalar kabi motivatsion texnologiyalarning ahamiyati yoritilgan. Maqola boshlang'ich sinf o'qituvchilari, maxsus pedagoglar, tyutorlar va inklyuziv ta'lim masalalariga qiziquvchi mutaxassislar uchun amaliy qo'llanma vazifasini o'taydi.*

Kalit so'zlar: *Inklyuziv ta'lim, boshlang'ich sinf, alohida ehtiyojli o'quvchilar, universal dizayn, differensial o'qitish, individual rivojlanish rejasini, skalafolding, token tizimi, ijtimoiy hikoyalar, pedagogik texnologiyalar, boshlang'ich sinf.*

Abstract: *This article is devoted to modern pedagogical technologies for teaching students with special needs in an inclusive environment in the primary education system. The article analyzes the principles of universal design, which are the basis of inclusive education, the mechanisms of its*

implementation in the educational process, as well as practical methods directly used in working with children with special needs. In particular, the integration of the individual development plan into practice, the use of the Differential Learning Approach, and the "Skalafolding" (Supportive Bridges) technology are considered in detail. The importance of motivational technologies such as the Token System in behavior management and Social Stories in the development of social skills is also highlighted. The article serves as a practical guide for primary school teachers, special educators, tutors, and specialists interested in inclusive education issues.

Keywords: Inclusive education, students with special needs, universal design, differentiated instruction, individual development plan, scaling, token system, social stories, pedagogical technologies, primary school.

Аннотация. Статья посвящена современным педагогическим технологиям обучения детей с особыми потребностями в инклюзивной среде в системе начального образования. В статье анализируются принципы универсального проектирования, лежащие в основе инклюзивного образования, механизмы его реализации в образовательном процессе, а также практические методы, непосредственно используемые в работе с детьми с особыми потребностями. В частности, подробно рассматриваются интеграция индивидуального плана развития в практику, применение дифференцированного подхода к обучению и технология «Скалафолдинг» (Supportive Bridges). Также подчеркивается значение мотивационных технологий, таких как система жетонов в управлении поведением и социальные истории в развитии социальных навыков. Статья служит практическим руководством для учителей начальной школы, педагогов-дефектологов, тьюторов и специалистов, интересующихся вопросами инклюзивного образования.

Ключевые слова: инклюзивное образование, дети с особыми потребностями, универсальное проектирование, дифференцированное обучение, индивидуальный план развития, масштабирование, система жетонов, социальные истории, педагогические технологии, начальная школа.

Kirish. Imkoniyati cheklangan bolalarni tarbiyalash masalasi bugungi kunda eng dolzarb masalalardan biriga aylanib bormoqda. Hozirgi kunda Respublikamizda alohida yordamga muhtoj bolalarning rivojlanish darajasi, imkoniyatlari, xususiyatlari va qobiliyatlariga ko'ra maxsus yoki umumiy ta'lim tizimida ta'limni amalga oshirish maqsadida inklyuziv ta'lim tizimi amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimizda istiqomat qiluvchi Mehnatga layoqatsiz va yolg'iz keksalar, nogironligi bo'lgan shaxslar hamda aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand boshqa toifalarining huquqlari davlat himoyasiga olinib, ularning ta'lim olishlari kafolotlangan. [1, 57-modda]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-son qarori bilan "2020 – 2025-yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi" tasdiqlanganligi inklyuziv ta'lim tizimi sohasini yangi rivojlanish bosqichiga olib chiqdi.

Inklyuziv ta'lim tizimini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari quyidagilardir:

a) inklyuziv ta'lim tizimi uchun pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish;

b) inklyuziv ta'limda o'qitish usullarini takomillashtirish, mazkur jarayonga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish;

v) inklyuziv ta'lim jarayonida o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash, bolaning jismonan sog'lom va baquvvat shakllanishiga erishish;

g) alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari sifatini yaxshilash;

d) inklyuziv ta'lim sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni joriy etish;

e) inklyuziv ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va ularni budjetdan moliyalashtirish samaradorligini oshirish;

j) inklyuziv ta'limga jalb qilingan alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning ta'lim-tarbiyasi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan beshta tashabbusni amaliyotga tatbiq etish[3].

Inklyuziv ta'lim tizimini rivojlantirishning maqsadi — ta'lim olish uchun teng imkoniyatni ta'minlash va barcha bolalarning individual xususiyatlaridan, oldingi ta'lim yutuqlaridan, tili, madaniyati, ota-onalarning ijtimoiy va iqtisodiy holatidan qat'iy nazar ta'limda muvaffaqiyatga erishishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishdir[3].

Inklyuziv ta'lim barcha bolalarning sinfda ishtirok etishini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, bu jarayonning muvaffaqiyati bevosita pedagogik "texnologiyalarning" samaradorligiga bog'liqdir [2]. Boshlang'ich sinf o'quvchilari (6-10 yosh) aynan shu davrda o'quv faoliyatiga moslashgani sababli, alohida ehtiyojli bolalar uchun maxsus moslashtirilgan o'qitish metodlari ularning muvaffaqiyati uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega [4].

1. Inklyuziv ta'lim texnologiyalarining asosiy konsepsiyasi.

Inklyuziv texnologiyalar o'quv jarayonini barcha bolalarning turli xil bilish usullari, sur'atlari va qiziqishlariga moslashtirishni ta'minlovchi usullar va vositalar majmuidir.

A. Universal dizayn

Bu konsepsiya inklyuziv ta'limning texnologik asosini tashkil etadi[5]. Universal dizaynning maqsadi – ta'lim muhitini va materiallarini boshidanoq turli ehtiyojlarga moslashtirishdir. U quyidagi uch tamoyilga asoslanadi:

1. Axborotni taqdim etishning turli usullari: vizual, eshitish, taktil, matnli.

2. Javob berish va ifodalashning turli usullari: og'zaki, yozma, chizma, amaliy harakatlar.

3. Jalb qilishning turli usullari: har xil motivatsiya, qiziqish va vazifalarni tanlash imkoniyati.

2. Darsni rejalashtirish va o'qitish texnologiyalari.

Boshlang'ich sinfda alohida ehtiyojli o'quvchini o'qitishda quyidagi amaliy texnologiyalardan foydalanishi zarur:

2.1. Individual rivojlanish rejasini amaliyotga tatbiq etish.

Individual rivojlanish rejasini faqat qog'ozdagi hujjat emas, balki real texnologik vositadir [6]. Unda aniq maqsadlar (Masalan: 3 oy ichida o'qish tezligini so'z/daqiqaga yetkazish), moslashtirilgan topshiriqlar va o'lchash usullari belgilanadi.

Texnologiya: Individual rivojlanish rejasini sinf daftariga integratsiya qilish va har haftalik taraqqiyotni qayd etib borish.

2.2. Differensial o'qitish texnologiyasi

Bu – o'qituvchining bir vaqtning o'zida turli ehtiyojli guruhlar bilan ishlashi, ammo umumiy maqsadga erishishi.

Texnologik element	Qo'llanishi	Alohida ehtiyojli bolaga foydasi
Materialni taqdim etish	Bir xil mavzuni uch xil usulda berish: 1. Matn; 2. Video/Audio; 3. Amaliy maket.	Eshitish/ ko'rish/ harakat xotirasi ustun bo'lgan bolaning materialni mustaqil o'zlashtirishi.

Guruhlash	O'quvchilarni qobiliyatga qarab emas, balki ehtiyojga qarab guruhlash (Masalan, biri o'qiydi, ikkinchisi yozadi, uchinchisi kuzatadi).	Hamkorlik ko'nikmasini kuchaytiradi, o'zining kuchli tomonini namoyish etish imkoniyatini beradi.
Javob berish usuli	Javobni og'zaki, yozma yoki imo-ishora (vizual karta) orqali qabul qilish.	Nutqi zaif yoki disgrafiyaga ega bo'lgan bolaning bilimini to'liq namoyish etishi.

2.3. "Skalafolding" (yordamchi ko'priklar) texnologiyasi

Bu – murakkab vazifani bosqichma-bosqich bajarish uchun tashqi yordam tizimini yaratishdir [7].

Vizual skalafolding: Vazifani mayda qismlarga bo'lish va har bir qadamni belgilovchi rasm/sxemalarni stol ustiga qo'yish (Masalan, masalani yechish algoritmi).

Og'zaki skalafolding: O'qituvchi tomonidan beriladigan yo'naltiruvchi savollar sonini, bola mustaqil bajara olgan sari kamaytirib borish.

3. Motivatsiya va xulq-atvorni boshqarish texnologiyalari

Inklyuziv sinfda alohida ehtiyojli o'quvchilarning emotsional-irodaviy sohasini qo'llab-quvvatlash muhimdir.

3.1. Token tizimi (Mukofot beligilari)

Bu – ijobiy xulq-atvorni mustahkamlash uchun ishlatiladigan texnologiya [8]. Bola qoidalarga rioya qilgani uchun "token" (kichik nishon, rasm) oladi. Ma'lum miqdordagi token yig'ilganda, u o'ziga yoqqan rag'bat (masalan, o'yinchoq, 5 daqiqa o'yin vaqti) ga almashtirishi mumkin.

3.2. Ijtimoiy hikoyalar texnologiyasi

Bu – avtizm spektri buzilishi bo'lgan bolalarga ijtimoiy vaziyatlarni tushunishga yordam beruvchi qisqa, soddagina, vizual hikoyalardir [9]. Hikoya

bolaga, qandaydir ijtimoiy vaziyatda (masalan, sinfda qo'lni ko'tarish, janjalni tinch yo'l bilan hal qilish) o'zini qanday tutishni o'rgatadi.

Xulosa va tavsiya

Boshlang'ich sinflarda inklyuziv ta'limning samaradorligi innovatsion texnologiyalarni qo'llashga asoslanadi. Universal dizayn tamoyillarini o'zlashtirish, Individual Rivojlanish Rejasini amaliyotga tatbiq etish va differensial yondashuvni kundalik darslarga singdirish har bir o'qituvchining professional burchi hisoblanadi. Faqatgina texnologik jihatdan tayyorlangan o'qituvchigina barcha bolalar uchun muvaffaqiyatga erishish imkoniyatini ta'minlab, sinfni haqiqiy inklyuziv va tenglik makoniga aylantira oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi 2020-yil 23-sentyabrdagi O'RQ-637-son Qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-son qarori.
4. UNESCO. The Salamanca Statement and Framework for Action on Special Needs Education. Paris: UNESCO. 1994-yil.
5. CAST. Universal Design for Learning Guidelines version 2.2. Wakefield, MA: Author. (UDL asosiy tamoyillari manbasi) 2018-yil.
6. Karimova V.M. Inklyuziv ta'lim: Nazariya va amaliyot. Toshkent., 2018-yil
7. Vygotsky, L. S. Mind in Society: The development of higher psychological processes. Cambridge, MA: Harvard University Press., 1978-yil.
8. Cooper, J. O., Heron, T. E., & Heward, W. L. Applied Behavior Analysis (2nd ed.). Upper Saddle River, NJ: Merrill/Prentice Hall. 2007-yil
9. Gray, C. A. The New Social Story Book. Arlington, TX: Future Horizons. 2015-yil.